

TALABALAR VA MAKTAB O'QUVCHILARINI KIBERXAVFSIZLIK DAN HIMOYALASH

ЗАЩИТА СТУДЕНТОВ И ШКОЛЬНИКОВ ОТ КИБЕРУГРОЗ

**PROTECTING STUDENTS AND SCHOOLCHILDREN FROM
CYBERSECURITY THREATS**

Mirzaakbarov Dilshodbek Dovlatboyevich

Farg'ona davlat universiteti axborot texnologiyalari

kafedrasi o'qituvchisi

mdilshodbek@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0002-5146-0467>

Yunusova Dilbarxon Muxtorjon qizi

Farg'ona davlat universiteti, Chet tillari fakulteti, 1-bosqich,

24.108-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar va maktab o'quvchilarining kiberxavfsizlik bo'yicha xabardorligini oshirish va ularni kiberxavflardan himoya qilish masalalari yoritilgan. Internet va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi yoshlar uchun katta imkoniyatlar yaratishi bilan birga, turli xavflarni ham yuzaga keltirmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar orasida kiberhujumlar, kiberbulling va shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi kabi muammolar dolzarb hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalar va maktab o'quvchilari uchun kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы повышения осведомлённости студентов и школьников о кибербезопасности и защиты их от киберугроз. Развитие интернета и цифровых технологий создаёт большие возможности для молодёжи, но также приводит к различным рискам. Результаты исследования показывают, что среди молодёжи актуальны такие проблемы, как

кибератаки, кибербуллинг и кража личных данных. В статье приведены рекомендации по формированию культуры кибербезопасности среди студентов и школьников.

Abstract: This article discusses the issues of increasing cybersecurity awareness among students and schoolchildren and protecting them from cyber threats. The development of the internet and digital technologies provides great opportunities for young people while also introducing various risks. Research results show that cyberattacks, cyberbullying, and personal data theft are pressing issues among young people. This article provides recommendations on forming a cybersecurity culture for students and schoolchildren.

Kalit soʻzlar. Kiberxavfsizlik, kiberbulling, shaxsiy maʼlumotlar, internet xavfsizligi, antivirus dasturlari, phishing hujumlari.

Ключевые слова. Кибербезопасность, кибербуллинг, личные данные, интернет-безопасность, антивирусные программы, фишинговые атаки.

Keywords. Cybersecurity, cyberbullying, personal data, internet security, antivirus software, phishing attacks.

KIRISH

Raqamli texnologiyalar taraqqiyoti natijasida internet kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Internet, mobil qurilmalar va raqamli xizmatlardan foydalanish kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan. Ayni paytda talabalar va maktab oʻquvchilari dars materiallariga kirish, oʻqituvchilar va sinfdoshlar bilan aloqa qilish, turli onlayn platformalardan foydalanishda internetdan foydalanadilar. Biroq ularning kiberxavfsizlik sohasidagi bilim va koʻnikmalari, koʻpincha, yetarli emasligi tufayli ular turli tahdidlarga, jumladan, shaxsiy maʼlumotlar oʻgʻirlanishi, firibgarlik, onlayn zoʻravonlik va boshqa salbiy holatlarga duch kelmoqdalar.

Kiberxavfsizlik nafaqat texnik, balki ijtimoiy va pedagogik muammo sifatida ham qaralmoqda. Taʼlim muassasalarida axborot xavfsizligi madaniyatini shakllantirish, oʻquvchilarni onlayn muhitdagi xavflar haqida xabardor qilish va ularga toʻgʻri harakat

qilish bo'yicha ko'nikmalarni singdirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu bois ushbu maqola talabalar va maktab o'quvchilarining kiberxavfsizlik bo'yicha bilim darajasini aniqlash, mavjud muammolarni o'rganish va samarali himoya choralarini ishlab chiqishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalarning keng tarqalishi bilan yoshlar, ayniqsa, maktab o'quvchilari hamda talabalar kiberxavf-xatarlarga nisbatan yanada zaif qatlamga aylanishmoqda. Ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlarda yoshlarning kiberxavfsizlik bo'yicha bilimlari yetarli emasligi, ularda xavfsiz onlayn muhitni tashkil qilish ko'nikmalari sust rivojlangani qayd etilgan. Jumladan, Anderson va Agarwal (2020) tomonidan olib borilgan tadqiqotda talabalar orasida phishing xabarlariga ishonch darajasi yuqoriligi aniqlangan. Pew Research Center (2021) ma'lumotlariga ko'ra, o'rta maktab o'quvchilarining 60% dan ortig'i ijtimoiy tarmoqlarda shaxsiy ma'lumotlarini ochiq joylashtirishadi, bu esa ularni ijtimoiy muomala tahdidlarga duch kelishlariga olib keladi.

Bu kabi qarashlarni O'zbekiston miqyosida nazar solsak, Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi tomonidan amalga oshirilgan "Kiberxavfsizlik oyligi" kabi tadbirlari yoshlarning onlayn xavfsizlik haqida bilimlarini oshirishga qaratilgan bo'lib, bu borada dastlabki ijobiy natijalar mavjud. Biroq bu kabi tizimli yondashuv va pedagogik asoslangan profilaktika ishlari hali yetarlicha emas, deb olayman.

Odatda, bir necha tadqiqot usullari mavjud:

Aralash metodi – sifat va miqdoriy usullar birgalikda qo'llanadi. Bu usulda, ya'ni sifat usulida – o'quvchilar va talabalar bilan yarim strukturaviy intervyular o'tkaziladi. Ularni kiberxavfsizlik haqidagi bilimlari, kundalik onlayn odatlari va qanday tahdidlarga duch kelganliklari haqida ma'lumotlar beriladi.

Miqdoriy metodda esa – onlayn so'rovnoma asosida statistik ma'lumotlar to'planadi. So'rovnoma natijalari Telegram kanali yoki Google Forms orqali amalga oshiriladi va ishtirokchilar soni kamida belgilab olinib, so'rovnomalar natijasi tahlil qilinadi hamda ishtirokchilar eng kami 100 nafar bo'lishi rejalashtiriladi.

Tanlanma metodologiyada esa 50 nafar maktab o'quvchisi (7–11 sinf), 50 nafar oliy ta'lim muassasalari talabasi hamda tanlov shahar va qishloq hududlaridagi ta'lim muassasalaridan ishtirokchi olinadi.

Internet foydalanuvchilari, ayniqsa, yoshlar onlayn tahqir va bosimga duch kelishlari mumkin. Kiberbulling o'quvchilar va talabalar orasida ruhiy stress, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi va ijtimoiy ajralish kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Firibgarlar o'quvchi va talabalarni aldash orqali ularning shaxsiy ma'lumotlarini qo'lga kiritishga harakat qiladilar. Soxta veb-saytlar va elektron xatlar orqali amalga oshiriladigan fishing hujumlari foydalanuvchilarni o'z hisob ma'lumotlarini kiritishga undaydi. Ba'zi dasturlar va ilovalar viruslar tarqatish orqali foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining o'g'irlashi yoki kompyuter tizimlarini ishdan chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bunga qarshi antivirus dasturlaridan foydalanish muhimdir.

Shaxsiy ma'lumotlarning o'g'irlanishi. Talabalar va maktab o'quvchilari onlayn platformalarda shaxsiy ma'lumotlarini ko'p ulashadilar. Agar ushbu ma'lumotlar maxfiy saqlanmasa, ularning o'g'irlanishi va noxush oqibatlarga olib kelishi mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

Talabalar va o'quvchilar har bir akkaunt uchun murakkab va takrorlanmaydigan parollarni ishlatishlari kerak. Parollar kamida 12 ta belgidan iborat bo'lishi va harflar, raqamlar hamda maxsus belgilarni o'z ichiga olishi kerak hamda parollash tizimining ikki bosqichidan yoki biometrik parollashdan foydalanish lozim bo'ladi. Zararli dasturlar va viruslardan himoya qilish uchun kompyuter va mobil qurilmalarda antivirus dasturlarini o'rnatish va doimiy yangilab borish tavsiya etiladi. Elektron xat va SMS xabarlar orqali kelgan havolalarni tekshirmasdan ochmaslik, noma'lum manbalardan fayllarni yuklab olmaslik va shubhali veb-saytlarga shaxsiy ma'lumotlarni kiritmaslik kerak.

Shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun ijtimoiy tarmoqlarda oshkor qilinayotgan shaxsiy ma'lumotlar hajmini cheklash lozim. Maxfiylik sozlamalarini to'g'ri belgilash orqali noma'lum shaxslarga shaxsiy ma'lumotlarga kirish huquqini cheklash mumkin.

XULOSA

Xulosa shuki, bugungi kunda talaba va maktab o'quvchilari kiberxavfsizlik bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lishlari va o'zlarini internet tahdidlaridan himoya qila olishlari uchun quyidagilarga amal qilishlari lozim bo'ladi:

- Kiberxavfsizlik bo'yicha muntazam bilimga ega bo'lib borishlari;
- Onlayn xavfsizlik bo'yicha seminar va treninglarga qatnashib turishlari va shular orqali bilim, ko'nikma shakllantirishlari;
- Ota-onalar va o'qituvchilarning kiberxavfsizlik bo'yicha xabardorligini oshirishlari;
- Yoshlarni internetdan xavfsiz foydalanish madaniyatiga o'rgatishlari.

O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalar va maktab o'quvchilari orasida kiberxavfsizlikka oid tushunchalar sust shakllangan, ularning ko'pchiligi shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish qoidalarini yetarli darajada bo'lmaydi. Bu esa ularni turli kiberxavf-xatarlarga nisbatan zaiflashtiradi.

Kiberxavfsizlik madaniyatini shakllantirish uchun talaba va maktab o'quvchilariga tizimli yondashuv zarurati mavjud. Bu borada quyidagi choralarni taklif etiamiz:

- Ta'lim dasturlariga kiberxavfsizlikka oid alohida fan yoki modul kiritish;
- Maktab va universitetlarda muntazam trening va seminarlar o'tkazish;
- Onlayn xavfsizlikka oid interaktiv o'yinlar, viktorinalar va testlar orqali bilimlarni mustahkamlash;
- Ota-onalar va o'qituvchilarni ham bu jarayonga jalb qilish.

Xulosa shuki, yoshlarni kiberxavfsizlikdan himoyalash – bu nafaqat texnik masala, balki keng qamrovli ijtimoiy-tarbiyaviy jarayon hamdir. Bu butun jamiyatning e'tibori va diqqat markazidagi muammodir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Singer P. W., friedman A. Cybersecurity and Cyberwar: What Everyone Needs to Know. – Oxford University Press, 2014.
2. Mitnick K. The Art of Invisibility. – Little, Brown and Company, 2017.

3. Ekpo U. Introduction to Cyber Security. – Springer, 2021.
4. O‘zbekiston respublikasi axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. – Kiberxavfsizlik strategiyasi 2022-2025.
5. European union agency for cybersecurity (enisa). Cybersecurity Threat Landscape 2023.
6. Dovlatboyevich, D. M., & Komiljonovna M. Oliy ta’lim muassasalarida bulutli texnologiyalardan foydalanish metodikasi. – Miasto Przyszłości, 2022. – P.305-308.
7. Mirzaakbarov D. DIREKTIONS for the introduction of new information technologies in education. Экономика и социум, 2021. – P. 4(83).
8. Muzaffarxonov S., Mirzaakbarov D. “Sun’iy intellekt yordamida pochta xizmatini tashkil qilish”. – Miasto Przyszłości Kielce, 2023.
9. Shermatova X. Ta’limda axborot texnologiyalari, 2022. 1-qism. – P. 216.